

**MA'MURIY TARTIB-TAOMILLAR TO'G'RISIDAGI QONUN HUJJATLARINI QABUL QILISH  
MISSIYASI MUVAFFAQIYATLI YAKUNLANDI, BIROQ MUAMMOLAR OLDINDA**Asal Juraeva<sup>1</sup>**Annotatsiya**

Markuz maqolada Markaziy Osiyo davlatlarida olib borilayotgan ma'muriy islohotlarning samarali natija berishiga to'sqinlik qilayotgan ayrim muammolarga to'xtalib o'tilgan. Markaziy Osiyo mamlakatlarida ma'muriy tartib taomillarga bag'ishlangan qonun hujjatlarining ishlab chiqilishi hamda qabul qilinishi mazkur davlatlarda tarixiy muhim bosqich sifatida qayd etildi. Ammo, ma'muriy tartib taomillarga bag'ishlangan qonun hujjatlarining amaliyotda ishlashi hamda to'g'ri tadbqiq etilishi Markaziy Osiyo davlatlari uchun murakkab va dolzarb vazifa hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** ma'muriy tartib taomillar; ma'muriy islohotlar; ma'muriy huquq; Markaziy Osiyo

**Abstract**

The article highlights the administrative reforms being carried out in the Central Asian countries and touches on some problems that prevent these reforms from achieving effective results. Development and adoption of legislation on administrative procedures in the countries of Central Asia was noted as a historically important stage in these countries. However, implementation of the laws on administrative procedures is a complex and urgent task for the countries of Central Asia.

**Keywords:** administrative procedures; administrative reforms; administrative law; Central Asia

**Аннотация**

В статье освещаются административные реформы, проводимые в странах Центральной Азии, и затрагиваются некоторые проблемы, которые мешают этим реформам достичь эффективных результатов. Разработка и принятие законодательства об административных процедурах в странах Центральной Азии отмечены как исторически важный этап в этих странах. Однако реализация законов об административных процедурах является сложной и актуальной задачей для стран Центральной Азии.

**Ключевые слова:** административные процедуры; административные реформы; административное право; Центральная Азия

Markaziy Osiyo davlatlari huquqining rivojlanishida Germaniya tajribasi doimo asosiy o'rinni egallagan. Bu, ayniqsa, ma'muriy huquq bilan bog'liq islohotlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Ma'muriy tartib taomillar davlat boshqaruvida jamoat manfaatlari (public interest) hamda individual shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlari o'rtasida o'zaro muvozanatni ta'minlaydigan asosiy institut hisoblanadi. Markaziy Osiyo davlatlarida ma'muriy tartib taomillar bilan bog'liq qonun hujjatlarining qabul qilinishi davlat boshqaruv

<sup>1</sup> Asal Juraeva, o'qituvchi, Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent, O'zbekiston. E-mail: [asalxon1311@gmail.com](mailto:asalxon1311@gmail.com)

organlarining nazorat, boshqaruv, ruhsat berish, litsenziyalash, ro'yhatdan o'tkazish va boshqa ko'plab vakolatlariga ta'sir etadi.

Qayd etish lozimki, yaqin yillarda Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan ma'muriy islohotlar olib borilmoqda. Mazkur islohotlarning barchasi ma'muriy organlar tomonidan ularga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni sifatli bajarilishiga qaratilgan. Xususan, Turkmanistonda 2018-yilning 1-yanvaridan "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonun kuchga kirdi. [1] Ushbu qonun nemis huquqiga asoslangan bo'lib, Turkmanistonning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi. Qonun ishlab chiqilishi katta muddatda amalga oshirilganligi hamda xalqaro tajriba puxta tahlil qilingani mazkur qonunning yuksak saviyali bo'lishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilgan. Qozog'istonda ma'muriy protseduralar va ma'muriy sud ish yurituvini bir kodeksda birlashtirishga qaror qilingan. O'zbekistonda "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonun qabul qilingan bo'lib, afsuski, bunda muayyan muammolar mavjud. Tojikiston va Qirg'iziston Respublikasi boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan ma'muriy islohotlarni nisbatan erta boshlagan.

O'zbekistonda 2016-yilda ma'muriy va sud-huquq islohotlari zarurligini belgilab beruvchi siyosiy o'zgarishlar boshlandi. [2] Rasmiylar davlat boshqaruvi faoliyatidagi kamchiliklarni tahlil qilish, fuqarolarning keng ishtirokini talab qiladigan institutlar va jarayonlarni qo'llab-quvvatlash uchun ochiq yondashuvni boshladilar. Davlat mansabdor shaxslarining qonun ustuvorligi, davlat organlarining shaffofligi va hisobdorligi tamoyillariga rioya etishi yangi siyosiy boshqaruvning maqsadiga aylandi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi va O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslar bilan huquqiy munosabatlarini aynan ma'muriy tartib-taomillar instituti orqali o'zgartirishga qaratilgan. [3] Ma'muriy tartib taomillar - ma'muriy organlarning ma'muriy-huquqiy faoliyatini tartibga soluvchi protsessual qoidalaridir. 2017-yilda O'zbekistonda ma'muriy sud tizimining joriy etilishi huquqiy islohotlarning ajralmas qismi bo'lib, ijro hokimiyati organlarining hujjatlari va harakatlari ustidan sud nazoratini amalga oshirishning sifat jihatidan yangi tartibini belgilab berdi. [4]

2018-yil boshida "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonun va Ma'muriy ish yuritish to'g'risidagi kodeks qabul qilindi. [5] Yuqoridagi islohotlar va qonunchilikdagi o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasida ma'muriy huquq sohasida katta yutuq sifatida qaraladi. Qisqa muddatda amalga oshirilgan qonunchilik islohotlari uzoq kutilgan g'oyalarni hayotga tatbiq etdi. Lekin shuni hisobga olish kerakki, O'zbekiston Respublikasida zamonaviy ma'muriy huquqning rivojlantirishda faqat tegishli qonunlarni qabul qilish bilan ulkan natijalarga erishib bo'lmaydi. "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunning haqiqatan ham samarali qonunga aylandi, deyishga hali erta, chunki uning tahlili shuni ko'rsatadiki, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonun mamlakatimizdagi ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonunlarning birinchi avlodi hisoblanadi. O'zbekistonning ma'muriy tartib-taomillar va ma'muriy sudlov to'g'risidagi so'nggi qonunchiligi davlat boshqaruvi paradigmasini o'zgartirish, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun samarali boshqaruv tamoyillari asosida yangi ma'muriy muhitni yaratish yo'lida o'ziga xos huquqiy hodisaga aylanishi kerak.

Ayni paytda, mazkur qonun hujjatlarining amaliyotini tahlil qilish zarur, chunki O'zbekistonda ma'muriy tartib-taomillar g'oyasi davlat hokimiyati apparatiga birinchi marta kiritilmoqda, ma'muriy tartib-taomillar G'arb dunyoqarashining mahsuli, Yevropa ma'muriy qonunchiligi instituti, ochiq hukumat va samarali boshqaruvni tartibga solish haqidagi Yevropa tushunchasining bir qismi hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, qonunning amal qilish sohasi bo'yicha qoidalarini shakllantirishda "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunni ishlab chiquvchilar oldida bir vaqtning o'zida ma'muriy tartibga solishning kengligi va ko'lamini ko'rib chiqish kabi murakkab vazifa ko'ndalang turgan. Shu munosabat bilan, sohalar yoki muayyan ma'muriy harakatlar ro'yxatini emas, balki ommaviy huquqiy munosabatlar orqali qonunning qo'llanilishi doirasini ko'rsatishga imkon beradigan moddaning yanada moslashuvchan versiyasidan foydalanish tavsiya etilgan. Shunday qilib, qonun xususiy shaxs va davlat organi o'rtasidagi munosabatlar jarayonini har qanday sohada ma'muriy tartib-taomillar asosida tartibga solishi prinsipial ahamiyatga ega.

Tegishli vazirlik va idoralar xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunda ko'rsatilgan ko'plab tamoyillar ularga tushunarsiz ekanligi aniqlangan. [6] Xususan, mutanosiblik, mazmunan qamrab olish, ishonchni himoya qilish, ma'muriy ixtiyoriylik (diskretsion vakolatlar)ning qonuniyligi, tadqiqot tamoyili kabi tamoyillar nafaqat ushbu tamoyillarning mazmun-mohiyati, balki ularni amaliyotda qo'llash bilan bog'liq ko'plab savollarni keltirib chiqaradi.

So'nggi yillarga qadar O'zbekistonda eng muammoli masalalardan biri fuqaro va boshqaruv organlari o'rtasidagi ma'muriy-huquqiy munosabatlar edi. "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonun bu vaziyatni o'zgartirishga umid qilingan edi. Qonun ustuvorligi doktrinasi mansabdor shaxslarning huquqiy ongiga singib ketishi va ma'muriy normalar ijodkorligida demokratik jarayonni kafolatlovchi huquqni qo'llash mexanizmining muhim elementiga aylanishi kerak. [7]

O'zbekistonda bugungi kunga qadar rivojlangan huquq samarali boshqaruv fuqarolarning asosiy huquqi ekanligini hamda inson huquqlari va ma'muriy tartib-taomillar o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini yana bir bor tasdiqladi. Shu bois, quyidagi savollarga javob berish juda qiyin – mamlakat ma'muriy tartib-taomillarning ijtimoiy-huquqiy konsepsiyasiga tayyormi? Bizga qanday ma'muriy tartib-taomillar kerak: haqiqiy yoki qog'ozdagimi? Bu "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunni tayyorlash hamda amalga oshirish jarayonidagi jiddiy muammolardan biridir. Bu davlat boshqaruv organlari va fuqaro o'rtasidagi munosabatlarda yangi bosqichga o'tish uchun zarur hisoblanadi.

Bugungi kunga qadar post-sovet davlatlarining ko'plab nazariyotchi olimlari "ma'muriy huquq" tushunchasini birinchi navbatda ma'muriy huquqbuzarliklarni anglatish uchun ishlatadilar. Ma'muriy huquqbuzarlikning predmeti bo'lib, qonun bilan javobgarlik belgilab qo'yilgan aybli harakatlar (qoidabuzarliklar) hisoblanadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari uzoq vaqtdan beri eski davlat boshqaruvi tizimidan haqiqatda adolatli "boshqaruv organlari-fuqaro" munosabatlarini o'rnatishga yo'naltirilgan yangi demokratik tizimga o'tish davrini boshidan kechirib kelmoqda. Bu shuni anglatadiki, qonun chiqaruvchining yondashuvlari yaxshi ishlab chiqilgan modellar, ilmiy tavsiyalar, ijtimoiy tadqiqotlar va huquqiy tajribalarga asoslangan (yoki asoslangan bo'lishi kerak).

Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonunlar (kodekslar)ning qabul qilinishi bilan Markaziy Osiyo mamlakatlarida ma'muriy islohotlar yakuniga yetkazildi deyish mumkin emas. Nemis tadqiqotchilari umumiy ma'muriy huquq sohasidagi yangi qonunlarning samaradorligi ularning institutsional jihatdan qanday ta'minlanishiga bog'liq deb hisoblaydi. Bu esa qonunning yangi normalari va undan kelib chiqadigan huquqiy an'analar mavjud muammolar, huquqiy madaniyat va chuqur tahlilni talab etadi. Bunday tizimli yondashuv bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari sharoitida o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Biroq mazkur qonun hujjatlari davlat boshqaruvi paradigmasini o'zgartirish, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun samarali boshqaruv tamoyillari asosida yangi ma'muriy muhit yaratish yo'lida o'ziga

xos huquqiy hodisaga aylanishi lozim. Ma'muriy tartib-taomillar institutini ishlab chiqilishi qonun chiqaruvchi uchun qay darajada dolzarb va murakkab vazifa ekanligini, ularni ma'muriy organlar amaliyotiga to'g'ri tatbiq etishini vaqt ko'rsatadi. Bu Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun murakkab muammo.

Nemis xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) butun Markaziy Osiyoda ma'muriy tartib-taomillar va ma'muriy yustitsiya institutlarini ilgari surishda muhim rol o'ynagani hech kimga sir emas. Ushbu tashkilot ekspertlarining tushuntirish va tashkiliy yordamisiz tegishli qonun hujjatlarining qabul qilinishi dargumon edi. Ushbu tashkilotning maqsadi mintqa davlatlarining huquqiy tizimlarini qonun ustuvorligi sari siljitish va ularni zamonaviy davlat huquqiy institutlari bilan jihozlash edi. Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonun hujjatlarini qabul qilish missiyasi muvaffaqiyatli yakunlandi, biroq ilg'or qoidalarni murakkab huquqiy voqelikka integratsiyalash, ularni amaldagi qonunchilik bilan uyg'unlashtirish va yangi institutlarning samaradorligini tushunish hali amalga oshirilmagan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Law 'On Administrative Procedures' of Turkmenistan' (2017), <https://turkmenistan.gov.tm/index.php/ru/post/29045/zakon-turkmenistana-%3Cbr%3Eob-administrativnykh-protsedurakh>, 9 November, 2023.
2. L. Khvan, General Administrative Law in the Republic of Uzbekistan: Models of Key Institutions (Legislation and Law Enforcement Trends), Scholarly papers of the Institute of state and law of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan | 2021, p. 16-47.
3. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan DP-4947 'On the Strategy of Action for the Further Development of the Republic of Uzbekistan' 07 February 2017; Decree of the President of the Republic of Uzbekistan DP-5185 'On Approval of the Concept of Administrative Reforms of the Republic of Uzbekistan' 08.09.2017, <https://lex.uz/docs/-3331174>, 12 November 2023.
4. Decree of the President of Uzbekistan DP-4966 'On Measures to Improve the Structure of Judicial System of the Republic of Uzbekistan and Increase the Efficiency of Its Activities', <https://lex.uz/docs/3121085>, 12 November 2023.
5. Law of the Republic of Uzbekistan LRU-457 'On Administrative Procedures', <https://lex.uz/docs/6114000>, 12 November 2023; Code of Republic of Uzbekistan on Administrative Proceedings (2018), <https://lex.uz/docs/5695786>, 12 November 2023.
6. J. Nematov, Issues of application of the principle of trust protection in the administrative procedures of the Republic of Uzbekistan, Scholarly papers of the Institute of state and law of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan | 2021, p. 215-228.
7. L. Khvan, General Administrative Law in the Republic of Uzbekistan: Models of Key Institutions (Legislation and Law Enforcement Trends), Scholarly papers of the Institute of state and law of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan | 2021, p. 16-47.
8. S. Ibrokhimov, Code of administrative procedures of the Republic of Tajikistan: problems of practical application, Scholarly papers of the Institute of state and law of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan | 2021, p 149-161.
9. N. Janalieva, The Role of the German Doctrine of Administrative Law in the Legislation of the Kyrgyz Republic in the Field of Administrative Procedures, Scholarly papers of the Institute of state and law of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan | 2021, p. 175-194.

10. Y. Nuryev, Development of the Legislation of Turkmenistan on Administrative Procedures: Theory and Practice, Yearbook of public law 2020: Participants in administrative procedure and administrative process. Infotropik Media | 2020, p. 221-227.
11. R. Podoprighora, Administrativve Procedures in Kazakhstan: New Stage, Scholarly papers of the Institute of state and law of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan | 2021, p. 91-102.
12. J. Ziekov, The Role of the Law on Administrative Procedures in the Implementation of the Principle of the Rule of Law, Scholarly papers of the Institute of state and law of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan | 2021, p. 48-56.